

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**TURSUNALIYEV ULUG‘BEK SHAVKATJON O‘G‘LI**

**11-12 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS  
JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq–2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Tursunaliyev Ulug‘bek Shavkatjon o‘g‘li**

11-12 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy  
tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi ..... 3

**Турсуналиев Улугбек Шавкатжон угли.**

Эффективность развития общей и специальной физической  
подготовки таеквондистов 11-12 лет ..... 25

**Tursunaliyev Ulugbek Shavkatjon ugli**

The effectiveness of the development of general and special physical training  
of 11-12 years old taekvondo athletes ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных  
List of published works..... 54

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI**

**TURSUNALIYEV ULUG‘BEK SHAVKATJON O‘G‘LI**

**11-12 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING UMUMIY VA MAXSUS  
JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PHD/Ped3924 raqam bilan ro‘yhatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Raxmatov Bektosh Shomurod o‘g‘li</b> pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Dadaboyev Odiljon Jalolidinovich</b> pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent <b>Xankeldiyev Sher Hakimovich</b> pedagogika fanlari doktori, professor;
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.</b>

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: [www.uzdjtsu.uz](http://www.uzdjtsu.uz). e-mail: [uzdjtsu@uzdjtsu.uz](mailto:uzdjtsu@uzdjtsu.uz). O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Madaniyat saroyi” kichik majlislar zali, 2-qavat ilmiy kengash zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19- uy. Tel: (0-370) 717-17-79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonomasi)

**R.M.Matkarimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**Sh.Sh.Gaziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

**A.N.Shopulatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, p.f.d (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annatatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda jismoniy tarbiya va sport orqali yoshlar salomatligini tiklash, ularni sogʻlom turmush tarziga targʻib etish kabi masalalarga alohida urgʻu berilmoqda. Sportchilarni xalqaro arenalarda koʻrsatayotgan natijalari bilan birga ularni yuqori darajada tayyorlash maqsadida oliy toifali mutaxassislarni tayyorlash ishlarini tubdan rivojlantirishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Yakkakurash sport turlarini rivojlantirish, yoshlar orasida ommalashtirish, kerakli tayyorgarlik tizimlarini oqilona ravishda yoʻlga qoʻyish boʻyicha olib borilayotgan ishlar natijasida murabbiylar faoliyatiga yuzaga kelayotgan mavjud muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, sportchilarni koʻp yillik tayyorgarlik bosqichlarida muvaffaqiyatga erishish uchun yosh sportchilarni texnik tayyorgarligini oshirish negizida, ularni muhim musobaqalarga seleksiya orqali yoʻnaltirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar bugungi kunda murabbiylardan aniq va shaffof natijadorlikni talab etmoqda. Olimpiya sport turlari boʻyicha sportchilarning musobaqalariga tayyorgarlik jarayonida tegishli nazoratlarni tashkil etish, funksional holati dinamikasini oʻz vaqtida qayd etish, texnik-taktik tayyorgarlik holatini zamonaviy laboratoriyalarda izchil oʻrganish kabi faoliyatlar sportchilar tayyorgarligini yuqori sifatda olib borishga turtki boʻlmoqda. Taekvondo olimpiya sport turi sifatida tanilganligiga koʻp boʻlmaganligidan qatʼiy nazar, mazkur sohada olib borilayotgan tadqiqotlar, izlanishlar orqali murabbiylarga bir qancha qulayliklar yaratilmoqda. Yuqorida qayd etilgan ilmiy yutuqlar yosh taekvondochilarni jismoniy tayyorgarligini sportchining vazn toifasi, uning assimetriyasi va texnik harakatlarni toʻliq oʻzlashtirishiga qulay tayyorgarlik tizimini yaratish zaruriyatini tugʻdirmoqda.

Respublikamizda taekvondo sport turini rivojlantirish, uning zaminida yoshlarni mazkur sport turiga seleksiya ishlarini amalga oshirish, kelajakda olimpiada chempionlarini yuqori darajada tayyorlash va ularga keng sharoitlar yaratish kabi masalalarni amalga oshirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Mazkur sport turiga axloqiy qoidalarining singdirilganligini yoshlar orasida yanada ommalashishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Taekvondoni oʻqitishning zamonaviy metodikalariga asoslangan ilmiy-uslubiy va oʻquv adabiyotlar bilan taʼminlash hamda tibbiy xizmatni rivojlantirish”<sup>1</sup>, yosh taekvondochilar sport mahoratining muvaffaqiyatli takomillashuvini taʼminlovchi yoʻllarni izlab topish kabi muhim vazifalar belgilangan. Mamlakatimiz taekvondochilarini koʻp yillik tayyorlash tizimi, xalqaro arenadagi ayrim muvaffaqiyatlariga qaramasdan, yetarlicha shakllangani yoʻq. Qoidaga koʻra, ommaviy sportda, amaliyotchi-mutaxassislar yakkakurashlarning boshqa turlaridagi ishlanmalardan foydalanishadi, bunda, koʻpincha taekvondoning xususiyatlarini hisobga olishmaydi. Yoki, Oʻzbekistonning oʻziga xos tomonlarini hisobga olmagan holda, anʼanaviy koreys metodikalarini qoʻllashadi. Har ikkala holatda ham, tayyorgarlik samarasi va mos

---

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PQ-337-son qarori.

ravishda, musobaqa faoliyatining natijaviyligi pasayadi. Undan tashqari, sportchi taekvondochilarni tayyorlash bo'yicha tasdiqlangan, trenerlar qo'llashi mumkin bo'lgan va majbur bo'lgan dasturlar mavjud emas. Xususan, 11-12 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarning kamligi yosh taekvondochilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish yangi yo'llarini izlashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ- 5281-son "2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga sportchilarimizni kompleks tayyorlash to'g'risida", 2022-yil 29-iyuldagi PQ-337-son "Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda invazion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiz va xorijda yakkakurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish borasida bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, yurtimiz olimlardan F.A.Kerimov, A.N.Abdiyev, R.D.Xalmuxamedovlar yakkakurashchilarning texnik, taktik, aqliy, funksional jihatdan tayyorgarlik holatlarini rivojlantirish zarur deb hisoblashgan. G.B.Abdurasulova, Sh.Nuritdiova, S.S.Tajibayev, B.Sh.Raxmatov, N.Sh.Yusupovalar<sup>2</sup> taekvondochilar tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha bilim va tajribasini rivojlantirish, harakatli o'yinlardan foydalangan holda yakkakurashchilar tayyorgarligini oshirish, taekvondochilar tayyorgarligida maxsus mashqlardan foydalanish mahoratini oshirish hamda maxsus jismoniy tayyorgarligini nazorat qilib borish muhim deb hisoblashgan.

V.V.Kudin, V.V.Ageyev, Choy Men Che, V.S.Muntyanlar taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning umumiy tamoyillari va qoidalarini yoritish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. L.P.Matveyev, V.N.Platonvlar yakkakurashchilar tayyorgarligida jismoniy sifatlarni

---

<sup>2</sup>Kerimov F.A. Sport sohasida ilmiy tadqiqotlar // Darslik. - Toshkent. Zar qalam, 2004. - 334 b.; Abdiev A.N. Yakkakurash sport turlarida ixtisoslashuvchi talabalarda murabbiyning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. ... dis. -T.:O'zDJTI nashriyoti, 2004. - 210 b.; Xalmuxamedov R.D. Boks. O'quv qo'llanma. T.:Lider Press, 2008. - 317 b.; Abdurasulova G. Nuritdinova Sh. Tajibayev S. Taekvondo nazariyasi va uslubi -T: 2015 430-436 b.; Tajibayev S.S. O'smir yakkakurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o'yinlarni qo'llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash: Pedagogika. fan. (DSc)...diss.avtoref.-Chirchiq:O'zDJTSU, 2019, 77 b; Raxmatov B.Sh. "Yosh taekvondochilarda muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligini vestibulosomatik mashqlar yordamida rivojlantirish samaradorligi. Pedagogika. fan. (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq: O'zDJTSU; 2022. -56 b; Yusupova N.Sh. Yosh taekvondochilarning (WT) maxsus jismoniy tayyorgarligini innovatsion texnologiyadan foydalangan holda nazorat qilish metodikasi. Pedagogika. fan. (PhD)...diss.avtoref.-Chirchiq:O'zDJTSU; 2022.-55 b.

tayyorgarlik davrlarining ma'lum bir vaqtlarida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur deb ta'kidlashgan. S.V.Vandishev, Z.A.Abiyev, Sonbol Assim Abdel-Gani Axmed, O.G.Epov, A.O.Plotnikovlar taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda inavasion ta'lim uslublaridan foydalanish zarurligini asoslab, o'zlarining ilmiy uslublarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Bugungi jismoniy tarbiya va sport sohasining zamonaviylashib borayotgan bir davrida taekvondochilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga mos ravishda boshqa sport turlarida ham ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, Li Chjiyun, I.V.Bityutskixlar o'z ilmiy-tadqiqotlarida yoritib bergan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №V/I "Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirish asosida terma jamoalarida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimini, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kasbiy-pedagogik ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish" mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 11-12 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

texnik va taktik tayyorgarlik metodikasini mashg'ulotlarda qo'llash hisobiga yosh taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligi rivojlantirish;

11-12 yoshli taekvondochilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga tavsiya etilgan mashqlar dasturini ishlab chiqish va me'yorlarini shakllantirish;

yosh taekvondochilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari va muvozanat saqlash, harakat aniqligi bilan bog'liq bo'lgan murakkab vaziyatlarda zarbalardan foydalanishni takomillashtirish;

11-12 yoshli taekvondochilarda maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish qaratilgan mashg'ulotlarda tezkor-kuch qobilyatini rivojlantirish uchun ishlash tartibini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obekti** sifatida sport ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan taekvondochi-o'quvchilarning amaliy-mashg'ulot dars jarayonlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llanilgan uslublar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuvlar, anketa so'rovmasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba hamda tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish orqali sport takomillashuvi bosqichida taktik va texnik uslublarni amalga oshirish modelini

ishlab chiqish hisobiga taekvondo elementlarini o'zlashtirish samaradorligi oshirilgan;

11-12 yoshli taekvondochilarning tayyorgarlik mashqlarining koordinatsion yo'nalishini ta'minlaydigan sharoitlarni aniqlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan texnik-taktik tayyorgarlikning ritm qobiliyati, vaqt va fazoviy-kuch parametrlarini farqlash, raqibning qarshiligini o'zgaruvchan foizlarda bajarish kabi vazifalarni o'zida mujassam etuvchi model yordamida rivojlantirilgan;

zamonaviy pedagogik yondashuvlardan kelib chiqib 11-12 yoshli taekvondochilarning sport takomillashuvi va yuqori sport mahorati bosqichlarida o'zlashtirish va takomillashtirish uchun tavsiya etilgan taktik va texnik uslublarni tizimlashtirish orqali sport tayyorgarlik jarayonini yassi qo'lqoplarni turli (yuqori, o'rta, aralash) diapozonlarda qo'llash bilan texnik tayyorgarlikni oshirish uslubiyati takomillashtirilgan;

11-12 yoshli taekvondochilarning mahorat va ko'nikmalarni sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarining o'zaro bog'liqligi asosida ishlab chiqilgan vazn va tana uzunligini inobatga olib umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bo'yicha mashqlar kompleksi yordamida individual xususiyatlari asosida musobaqa sparringlarida murakkab taktik harakatlarni o'zaro bog'lagan holda bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha ishlarning mazmuni o'rganilib, bunda talabalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlardan kelib chiqib mashg'ulotlarni modellashtirish asosida sport faoliyati (taekvondo) yo'nalishi talabalarining o'quv dasturlarida o'z aksini topgan;

sport faoliyati (taekvondo) yo'nalishi talabalarining 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish uchun foydalanilgan;

sport faoliyati (taekvondo) sportchilarining taktik-strategik mahoratini o'stirish hamda oliy ta'lim muassasalarining sport faoliyati (taekvondo) yo'nalishi talabalarining pedagogik mahoratini oshirish tizimida foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot davomida olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga egaligi, tanlangan uslublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'liq mosligi, xorij va yurtimiz olimlarining ilmiy-tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalar va tavsiyalarga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy taklif va tavsiyalar 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan uslublari ishlab chiqilganligi, ularning ilmiy-uslubiy ahamiyati ochib berilganligi hamda mazkur uslublar doirasida 11-12 yoshli taekvondochilarni tayyorlash zaruratining muhimligi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish uslublari ishlab chiqildi hamda ushbu uslublar bo‘lajak dars, amaliy mashg‘ulot jarayonlaridagi faoliyatlarini takomillashtirish, keng mulohazaga tayangan holda jismoniy tayyorgarlik tizimini yaratish, mavjud muammolarga nisbatan ijodiy yondashish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

sport faoliyati (taekvondo) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha takliflar “Taekvondochilarga taekvondo texnik-taktik usullarni o‘rgatish uslubiyati” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024 yil 16 apreldagi 01/590-A/F-son buyrug‘iga asosan berilgan 01/590-A/F-3/33-raqamli guvohmasi). Natijada Sport faoliyati (taekvondo) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishidagi sportchi talabalarning 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha bilimlari oshganligi aniqlangan;

sport maktablarida yosh taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2024-yil 19-aprelda berilgan 03-16/3901-sonli ma‘lumotmasi). Natijada 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirishda tajribada samaradorligi isbotlangan mashqlar to‘plamidan foydalanish samarali ekanligi pedagogik tajribada isbotlangan.

sport maktablari yosh taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish bo‘yicha tajriba o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2024-yil 19-aprelda berilgan 03-16/3901-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirishda yuzasidan TG da 8 ta ko‘rsatkich bo‘yicha  $P < 0,001$  ga teng bo‘lgan. Bu ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan metodikaning samaradorligini ko‘rsatgan.

sport maktablarida yosh taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarliklari darajalarini aniqlash va taqqoslash uchun nazorat va tajriba guruhi sportchilari o‘rtasida sparringlar o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan 2024-yil 19-aprelda berilgan 03-16/3901-sonli ma‘lumotnomasi). Nazorat va tajriba guruhi sportchilarini musobaqalarda ishtirok etish tajribasi bo‘lishiga qaramasdan, natijalar tajriba guruhidagi texnik-taktik tayyorgarliklari darajalarini ancha yuqori ekanligini ( $P < 0,05$ ) ko‘rsatgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot doirasida jami 10 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bobdan iborat. 131 sahifa matn, 5 ta jadval, 7 ta rasm, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Dastlabki tayyorgarlik jarayonida trenirovka jarayonini tashkil qilishning zamonaviy uslublari”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy taekvondoda tayyorgarlik turlari, kompleks tayyorgarlikni shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar, dastlabki tayyorgarlik bosqichida maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi mavjud ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish asosida yoritib berilgan. Bir qator olimlar Yu.V.Verxoshanskiy, V.S.Daxnovskiy, S.S.Lehenko, M.M.Bulatova, G.N.Arzyutov, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, V.S.Muntyan taktik tayyorgarlik – texnik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita hisoblanishi va ushbu sifatlarning rivojlanishi darajasiga bog‘liqligi ta‘kidlab, yakkakurashlar misolida, jangni olib borish taktikasi bu, g‘alabaga erishish san‘ati ekanligi hamda raqibning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq baholash, o‘zi uchun eng kam yo‘qotishlar bilan g‘alabaga erishish uchun mazkur konkret holatda kerakligicha energiyani sarf qilish uchun o‘z kuchlarini mohirona qo‘llay olishi kerakligini aytib o‘tishgan.

Taekvondochilarni jismoniy rivojlantirishda taekvondo usullaridan foydalanib ruhiy va jismoniy kamolotga erishish, taekvondochilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishda tiklanish vositalaridan foydalanish, taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirish, ularni o‘rgatishda maktab, oliy o‘quv yurti, mahalla sport zallaridan hamda jismoniy rivojlantirish jarayonida ish qobiliyatlarini oshirishda turli tiklanish vositalarini qo‘llash va ulardan foydalanish talab etiladi.

Taekvondochining jismoniy tayyorgarligi taekvondo mashg‘ulotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar-kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. Taekvondoda jismoniy mashqlar-elementar harakatlar, ulardan tuzilgan harakat holatlari va ularning majmualari, jismoniy rivojlanish maqsadlarida tizimlashtirilgan unsurlardir. Taekvondo amaliyotida jismoniy mashqlar, insonning kunlik mehnat, maishiy, harbiy faoliyat turlaridan (yugurish, yurish, sakrash, irg‘itish, og‘irliklar ko‘tarish, suzish va boshqalar) o‘zlashtirib olingan va tashkiliy uslubiy ravishda gimnastika, yengil va og‘ir atletika, harakatli va sport o‘yinlari, sport turizmi va boshqalar sifatida rasmiylashtirilgan, harakatlar va holatlar asosiga qurilgan bo‘ladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, taekvondochilarning jismoniy rivojlanishida texnik, taktik yondashuvlar, pedagogik jihatlar, ta'lim metodlari va kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy mahoratni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Lekin, taekvondochilarning texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirishda yangi usul va uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash masalalari deyarli tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida unda ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik-nazorat testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, pedagogik tadqiqotning 3 ta bosqichda tashkil qilinganligi ko'rsatib o'tilgan:

I bosqich (2021-yil). Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusiga doir adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, tadqiqot mavzusini shakllantirish, tadqiqotimizning maqsad va vazifalarini qo'yish, yechilishi lozim bo'lgan muammolarni aniqlash, pedagogik tajribani o'tkazish bosqichlari hamda muddatlarini belgilash, tajriba tadqiqotlarida qo'llaniladigan vosita va uslublarni aniqlashtirish ishlari amalga oshirildi.

II bosqich (2022-yil). Bu bosqichda sport maktablarida 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligi holatini o'rganish, pedagogik tajriba uchun nazorat hamda tajriba guruhlarini tanlash, ularga tadqiqot jarayonida qo'llaniladigan vosita va uslublarning mazmunini tushuntirish, tadqiqotlarni o'tkazish uchun sinaluvchi guruh sportchi-o'quvchilar mashg'ulot jarayonlarini kuzatish ishlari amalga oshirildi.


III bosqich (2022-2023 yillar). Bu bosqichda biz tomonimizdan taklif qilingan 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashqlar to'plami samaradorligini aniqlash uchun sport maktablarining sportchi-o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi pedagogik tajribadan o'tkazildi. Pedagogik tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlarini uchun jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha bilim va tajribasini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar bosqichma-bosqich tadqiq etib borildi. Pedagogik tajribada nazorat va tajriba guruhida 30 nafardan iborat jami 60 nafar sportchi-o'quvchilar ishtirok etishdi.

Dissertatsiyaning **“11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari”** deb nomlangan uchinchi bobida taekvondochilar texnik tayyorgarliklarining mazmuni, 11-12 yoshli taekvondochilarning kompleks tayyorgarliklarini shakllantirishning tajribaviy dasturini tuzish masalalari o'rganilgan.

Taekvondochilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi rivojlantirishga ko'maklashuvchi maxsus mashqlardan foydalanish bo'yicha yosh taekvondochilarning texnik va taktik tayyorgarligini darajasini oshirishdagi muammolarni aniqlash maqsadida biz tomonimizdan sport maktablarida faoliyat olib borayotgan soha mutaxassisleri o'rtasida anketa so'rovnomasi o'tqazildi.

Unda shug'ullanayotgan taekvondochilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidladilar.


Mutaxassis-respendentlarni savollarga bergan javoblari natijalarini tahlili 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Bolalar va o'smirlar sport maktablarida faoliyat yuritayotgan taekvondo sport turi murabbiylari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rov savollarga berilgan javoblarining natijalari**

Mutaxassislar bilan birgalikda taekvondo sport turi bilan shug'ullanayotgan 11-12 yoshli 50 nafar ko'ngilli taekvondochilar bilan ham anketa-so'rovnoma o'tkazildi.


O'tkazilgan so'rovnoma natijalari va ularning tahliliga asoslanib shuni aytish lozimki, 11-12 yoshli taekvondochilar bilan olib boriladigan an'anaviy mashg'ulotlarda muvozanat saqlash qobiliyati va mashg'ulotlar jarayonidagi harakatlar (zarbalar) aniqligini shakllantirishga mo'ljallangan maxsus mashqlardan muntazam qo'llanilmas ekan. Ehtimol qilish lozimki, yosh taekvondochilar guruhlarida mashg'ulotlar o'tkazuvchi murabbiylar statik va dinamik shaklda muvozanat saqlash turg'unligi to'g'ridan-to'g'ri vestibulyar analizatorining funksional imkoniyati bilan bog'liqligi, agar ushbu analizator yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, muvozanatning izdan chiqishi, natijada harakat koordinatsiyasi ham, uning aniqligi ham buzilishi muqarrar ekanligini yetarli bo'lmasligi bilan asoslanishi mumkin (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Bolalar va o'smirlar sport maktablarida shug'ullanayotgan 11-12 yoshli taekvondochilar o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rov savollarga berilgan javoblarning natijalari (%)**

Biz anketa-so'rovnomasini olingan ma'lumotlarni yanada ishonchliroq asoslash uchun 11-12 yoshli taekvondochilar bilan olib boriladigan an'anaviy mashg'ulotlarda muvozanat saqlash, o'ng va chap oyoqlarda aylanma harakatlar davomida zarba berish aniqligini oshirishga qaratilgan mashqlarni qo'llash tajribasini pedagogik kuzatuv ostiga oldik. Pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki raqibga nisbatan nafaqat qo'llar bilan, balki ko'proq oyoq bilan zarba beriladigan yakkakurash sport turlarida (taekvondo, karate, kikkoksing) oyoqlarning tezkor, portlovchi va maksimal dinamik kuchi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun oyoqlar kuchini samarali rivojlantirishda o'ng va chap oyoqda imkon boricha maksimal marta, belgilangan vaqt ichida maksimal marta o'tirib-turish va bu mashqlarni muntazam qo'llab borish, birinchidan, xavfsiz (shikastlanish nuqtai nazaridan), ikkinchidan, o'ta samaralidir (3-rasm).

11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining dastlabki olingan natijalari NGda o'ng oyoqda max marta o'tirib turish soni  $8,5 \pm 1,33$  martani ko'rsatgan bo'lsa, TGda esa mazkur ko'rsatkichlar  $8,6 \pm 1,37$  tashkil qildi, Chap oyoqda max marta o'tirib turish NGda  $10,7 \pm 1,88$  martaga bo'lsa tajriba guruhida esa  $10,5 \pm 1,88$  martan tashkil qildi, o'ng oyoqda 10 soniya davomida maksimal marta o'tirib-turish soni NGda  $5,2 \pm 0,82$  martani tashkil etgan bo'lsa, TGda mazkur ko'rsatkich  $5,4 \pm 0,93$  ko'rsatdi. Chap oyoqda 10 soniya davomida max marta o'tirib-turish NGda  $7,2 \pm 1,20$  marta, TGda esa ushbu ko'rsatkichlar  $7,3 \pm 1,24$  martani ko'rsatdi, Brusyada qo'llarni max marta bukib-yozish NGda  $6,5 \pm 1,02$  martani tashkil etgan bo'lsa, TGda esa ushbu ko'rsatkichlar  $6,7 \pm 1,07$  tasjkil qildi.



**3-rasm. 11-12 yoshli taekvondochilarning vazin va tana uzunligini inobatga olib jismoniy va texnik tayyorgarligi bo'yicha mashqlar kompleks modeli.**

Brusyada qo'llarni 10 soniya davomida maksimal marta bukish-yozish soni NGda  $4,5 \pm 0,75$  marta bilan ifodalangan bo'lsa, TGda mazkur ko'rsatkich  $4,4 \pm 0,74$  martani tashkil qildi, Turnikda max marta tortilish NGda  $9,7 \pm 1,71$  ko'rsatgan bo'lsa TGda mazkur ko'rsatkich  $9,5 \pm 1,71$  ni tashkil qildi, Turnikda 10 s max marta tortilish NGda  $7,1 \pm 1,13$  ko'rsatgan bo'lsa TGda esa mazkur ko'rsatkich  $7,3 \pm 1,21$  ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### Tadqiqot boshida nazorat (n=30) va tajriba (n=30) guruhidagi 11-12 yoshli taekvondochilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlili

№	Testlar	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			AF	t	P
		$\bar{X}$	$\sigma$	V %	$\bar{X}$	$\sigma$	V %			
1	O'ng oyoqda max marta o'tirib turish	8,5	1,33	15,65	8,6	1,37	15,93	0,10	0,29	>0,7
2	Chap oyoqda max marta o'tirib turish	10,7	1,88	17,57	10,5	1,88	17,90	0,20	0,41	>0,6
3	O'ng oyoqda 10 s. max marta o'tirib-turish	5,2	0,82	15,68	5,4	0,93	17,35	0,13	0,57	>0,5
4	Chap oyoqda 10 s. max marta o'tirib-turish	7,2	1,2	16,67	7,3	1,24	16,99	0,10	0,32	>0,7
5	Brusyada qo'llarni max marta bukib-yozish	6,5	1,02	15,62	6,7	1,07	15,96	0,15	0,56	>0,5
6	Brusyada qo'llarni 10 s. max marta bukib-yozish	4,5	0,75	16,67	4,4	0,74	16,87	0,09	0,47	>0,6
7	Turnikda max marta tortilish	9,7	1,71	17,63	9,5	1,71	17,92	0,16	0,36	>0,7
8	Turnikda 10 s. max marta tortilish	7,1	1,13	15,83	7,3	1,21	16,60	0,15	0,50	>0,6

Izoh: AF-absolyut farq.

Dastlabki olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, nazorat va tajriba guruhlaridagi sinaluvchilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farq yo'qligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki 11-12 yoshli taekvondochilarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshishiga qaratilgan me'yoriy mashqlarni belgilangan talablar asosida tanlab olishimiz mumkin.

Bu esa texnik-taktik tayyorgarlikning aniq vazifalarini yechishda maxsus tayyorgarlik mashqlarining koordinasion yo'nalishini ta'minlaydigan sharoitlar hamda texnik-taktik tayyorgarlikning aniq vazifalarini bilish zarur ekanligini ko'rsatadi (2-jadval).

**Texnik-taktik tayyorgarlikning aniq vazifalarini yechishda maxsus tayyorgarlik mashqlarining koordinasion yo‘nalishini ta’minlaydigan sharoitlar**

<b>Koordinasion yo‘nalish</b>	<b>Maxsus tayyorgarlik mashqlarining turli koordinasion yo‘nalishini ta’minlaydigan sharoitlar</b>	<b>Texnik-taktik tayyorgarlikning aniq vazifalari</b>
Ritm qobiliyati	Yengillashtirilgan sharoitlarda harakatlarning optimal ritmik xususiyatlariga rioya qilish (maksimal tezlikning 80-90 foizi: raqibning qarshilgisiz va h.k.)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yakka hujum harakatlari texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- joyda manevr qilish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- hujum usulida manevr qilish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- manevr va yakka hujum harakatlarini birlashtirish;</li> </ul>
	murakkablashtirilgan sharoitlarda harakatlarning optimal ritmik xususiyatlariga rioya qilish (raqibning qarshiligi ostida; turli darajadagi charchoq foni; harakatni boshlashning vaqtinchalik noaniqligida va h.k.)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- kombinasion hujum harakatlari texnikasining barqarorligini oshirish;</li> <li>- himoya va qarshi hujum usulida manevr qilish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- himoya va qarshi hujum texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- manevr qilishni himoya va qarshi hujum harakatlari bilan birlashtirish.</li> </ul>
Statik va dinamik muvozanatni saqlash qobiliyati	<ul style="list-style-type: none"> <li>- turli xil vestibulyar yuklamalardan keyingi harakatlarni bajarish (burchak va to‘g‘ri chiziqli tezlanish);</li> <li>-tayanch maydonini cheklash,</li> <li>-ko‘rish nazoratini istisno qilish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- vestibulyar yuklamadan so‘ng yakka hujum harakatlari texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- burilish bilan beriladigan zarbalarni bajarishda barqarorlikni ta’minlash;</li> <li>- turli yo‘nalishli manevr qilishdan so‘ng zarbalarni bajarishda barqarorlikni ta’minlash;- vestibulyar yuklamadan so‘ng kombinasion hujum va qarshi hujum harakatlarining barqarorligini oshirish;</li> <li>-turli yo‘nalishli manevr qilishdan so‘ng zarbalar kombinatsiyasini bajarishda barqarorlikni ta’minlash;</li> <li>-yuqori qismga zarbalarni bajarishda barqarorlikni ta’minlash.</li> </ul>
Vaqt va fazoviy-kuch parametrlarini farqlash qobiliyati	<ul style="list-style-type: none"> <li>- harakatlarni turli tezliklarda almashtirib bajarish (maksimaldan 70-95%);</li> <li>- harakatlarni turlicha kuch bilan almashtirib bajarish (maksimaldan 70- 95% ot);</li> <li>- harakatlarni turli amplitudada almashtirib bajarish (raqibning bo‘yiga bog‘liq holda o‘rta va yuqori daraja);</li> <li>- harakatlarni turli yo‘nalishlarda almashtirib bajarish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hujum va qarshi hujum harakatlari o‘zgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- musobaqa epizodlarini tayyorlash uchun aldamchi harakatlarni shakllantirish;</li> <li>- zarbalarning maqsadli aniqligini oshirish.</li> </ul>

## 2-jadval davomi

<p style="text-align: center;">Harakatlarni moslashtirish qobiliyati</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- yuqoridagi harakatlarni bitta harakatga birlashtirish (turli amplitudali ketma-ket va kombinasion zarbalarni birlashtirish; turli yoʻnalishdagi ketma-ket va kombinasion zarbalarni birlashtirish;</li> <li>- turli kuch va tezlikdagi ketma-ket va kombinasion zarbalarni birlashtirish)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hujum va qarshi hujum harakatlarida kombinasion va ketma-ket zarbalarning oʻzgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- kombinasion yoki ketma-ket aksentli zarbalarning maqsadli aniqligini oshirish;</li> <li>- aldamchi harakatlarning oʻzgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- aldamchi va hujum harakatlarini birlashtirish;</li> <li>- manevr qilish va aldamchi harakatlarni birlashtirish.</li> </ul>
<p style="text-align: center;">Harakatlarni qayta qurish qobiliyati</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bellashuvni olib borish uslubining maʼlum miqdor-dagi oʻzgarishlari uchun vaqt chegarasi;</li> <li>- uslubni oʻzgartirish uchun dastlabki pozitsiyalarni cheklash;</li> <li>- uslublarni shartli qoʻllash va ularni oʻzgartirish (oʻz tashabbusi bilan, murabbiy-ning signaliga muvofiq, raqibning harakatlariga javoban)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- hujumdan himoya harakatlariga oʻtish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- himoya harakatlaridan qarshi hujum harakatlariga oʻtish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- qarshi hujum harakatlaridan himoya harakatlariga oʻtish texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- hujum harakatlaridan himoya va qarshi hujum harakatlariga oʻtish oʻzgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- tahdid va qarshiliklardan foydalanish oʻzgaruvchanligini oshirish.</li> </ul>
<p style="text-align: center;">Fazoda moʻljalni olish qobiliyati</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- maydonni cheklash;</li> <li>- maydonning maʼlum bir hududida texnik-taktik harakatni (TTH) shartli qoʻllash,</li> <li>- koʻrish nazoratini cheklash;</li> <li>- TTH yoʻnalishini shartli tanlash;</li> <li>- vestibulyar yuklamadan soʻng TTH yoʻnalishini tanlash;</li> <li>- toʻsiqlarni yengib oʻtgach, TTHni bajarish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- turli xarakterdagi manevrlar (shaxsiy, raqibniki, oʻzaro) bilan hujum, qarshi hujum va himoya texnikasi barqarorligini oshirish.;</li> <li>- turli xarakterdagi manevrlar (shaxsiy, raqibniki, oʻzaro) bilan hujum va qarshi hujum harakatlarining maqsadli aniqligini oshirish;</li> <li>- hujum, himoya va qarshi hujumda manevrlarning oʻzgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- hujum uslubida tahdidlarni, qarshi hujumda chaqiriqlarni qoʻllashning oʻzgaruvchanligini oshirish.</li> </ul>
<p style="text-align: center;">Reaksiya koʻrsatish qobiliyati</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- turli signallarga javob berish shartlarini murakkablashtirish (vaqt noaniqligi; alternativ noaniqlik; fazoviy noaniqlik; ularning kombinatsiyasi)</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- himoya harakatlari texnikasi barqarorligini oshirish;</li> <li>- himoya harakatlarining oʻzgaruvchanligini oshirish;</li> <li>- qarshi hujum harakatlari adekvatligini oshirish;</li> <li>- himoya harakatlari samaradorligini oshirish.</li> </ul>

Hujum, qarshi hujum va himoya texnikasidan foydalanish jarayonida o‘ziga xos koordinasion qobiliyatlarning kompleks namoyon bo‘lishiga ta’sir qilish uchun, vazifalarning yuqori koordinasion murakkabligini ta’minlaydigan shartlarni birlashtirish kerak. Bunda, birinchi navbatda, tuzilishi bo‘yicha o‘zaro bog‘liq oddiy harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan, ammo ular tarkibiga bosh qismga va burilish bilan beriladigan murakkab koordinasion zarbalar kombinatsiyasi kiritilgan vazifalarni bajarish kerak bo‘ladi. Bu harakatlar muvozanatlash va muvofiqlashtirish qobiliyatini birlashtirishga imkon beradi.

Yanada murakkab o‘zaro bog‘liq harakatlarda yakka murakkab koordinasion zarbalardan foydalanish, yoki oddiy zarbalar ketma-ketligi yoki kombinatsiyasidan, ularning fazo va vaqt hamda kuch xususiyatlarini o‘zgartirishning taktik shartlari bilan birgalikda foydalanish kerak. So‘ngra ko‘rsatib o‘tilgan vazifalarni maydon bo‘ylab manevr qilish bilan birgalikda bajarish zarur, bu esa fazoda oriyentirlanish qobiliyatini namoyon etishni talab qiladi. Natijada sparringda to‘satdan yuzaga keladigan hujum vaziyatlarida himoya harakatini amalga oshirishi zarur bo‘ladi (4-rasmga qarang).



**4-rasm. Sparringda to‘satdan yuzaga keladigan hujum vaziyatlarida himoya harakatini amalga oshirish uslubiyati**

Taekvondo usullari umumiy yagona birlikni (bir butunlik) tashkil qilib, makon va vaqt bo‘ylab o‘zaro birlashtirilgan alohida olingan oddiy (elementar) harakatlar yig‘indisidan iborat hisoblanadi. Har bir usul qo‘llar, oyoqlar va gavdaning oddiy harakatlaridan tashkil topadi. Bu harakatlar elementar harakatlar deb nomlanadi. Taekvondoda shartli ravishda quyidagi elementar harakatlar o‘zaro farqlanadi:

- qo'llarning bukilishi, yozilishi, quloqlar yoyilishi, teskari tomonga qayta harakatlantirilish va boshqalar,

- oyoqlarning qadam tashlashi, bukilishi, yozilishi, qo'yilishi, itarilishi, ko'tarilishi, pasayishi, aylanishi va boshqa ko'rinishdagi harakatlari;

- gavdaning harakatlari egilish, qayrilish, aylanish, teskari tomonga harakatlanish va boshqalar.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini shakllantirish metodikasini tajribada asoslash”** deb nomlanadi. mazkur bobda 11-12 yoshli taekvondochilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish, trenirovka jarayonining makrosikli davomida mikrosikllar bo'yicha jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi dinamikasi hamda trenirovka jarayonini yakunida nazorat va tajriba guruhlarida yosh taekvondochilarning kompleks tayyorgarlik darajalarini taqqoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalarining tahlili bayon qilingan.

Sport takomillashuvi va yuqori sport mahorati bosqichlarida texnikani takomillashtirish individual rejalashtirish bilan tavsiflanadi va sportchining individual texnik va taktik imkoniyatlarini yanada kengaytirishni (bu vazifalar standartlashtirilgan texnik va taktik tayyorgarlik jarayonida hal qilinadi), hamda muayyan bir (yoki ehtimoliy) raqiblarga moslashishni (“avtonom” tayyorgarlik) o'z ichiga oladi. U yoki bu taktik jang uslublarini afzal ko'ruvchi raqiblar bilan samarali harakat qilishga imkon beradigan asosiy texnik ko'nikmalar, sport mahoratining ushbu darajasida, qoidaga binoan, allaqachon o'zlashtirilgan, shu sababli trenirovka jarayonida “shoh” usullar va harakatlarga ustunlik beriladi. Shuningdek, sport takomillashuvi va yuqori sport mahorati bosqichlarida o'zlashtirish va takomillashtirish uchun tavsiya etilgan taktik va texnik uslublarni o'zlashtirishning zarurligini ko'rstadi (3- jadvalga qarang).

### 3- jadval

#### Sport takomillashuvi va yuqori sport mahorati bosqichlarida o'zlashtirish va takomillashtirish uchun tavsiya etilgan taktik va texnik uslublar

Hujumchining harakatlari		Himoyachining harakatlari
Zarbali hujumlar	- tezlik ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalanih; - javob qarshi hujumi
	- sur'at ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya; - buzuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalanih; - javob qarshi hujumi
	- o'yin ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya; - buzuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalanih; - javob qarshi hujumi
	- kuch ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya;

		- buzuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalaniish; - javob qarshi hujumi
Manevr-zarbali hujum	Pozision siqib chiqarish va ta'qib qilish	- manevr qilish bilan himoyalaniish; - pozision-ziddiyatli himoya; - javob hujumi
Kombinatsiyali hujum	- tezlik ustunligi; - o'yin ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya; - buzuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalaniish; - javob qarshi hujumi
Provokasion- qarshi hujum	- tezlik ustunligi; - o'yin ustunligi	- oldingi himoya; - to'xtatuvchi himoya; - buzuvchi himoya; - manevr qilish bilan himoyalaniish; - javob qarshi hujumi

Biroq, yuqori toifali sportchi, jangni olib borishning nafaqat turli xil taktik uslublari haqida tasavvurga ega bo'lishi, balki turli taktik usullardan foydalanadigan raqibga samarali qarshi tura olishi kerak. Shu sababli, individual taktik usullarni takomillashtirish bilan bir vaqtda (ular, "shoh" usullar kabi ko'p hajmda qayta ishlanadi), trenirovka mashg'ulotlari dasturiga hujumda kuch ustunligi ko'nikmalarini o'zlashtirish vazifalari, shuningdek, himoya usullarining kengaytirilgan variantlaridan foydalanishni bilish zarur hisoblanadi (4-jadval va 5-rasmga ga qarang).


#### 4- jadval

### Nazorat (n=30) va tajriba (n=30) guruhidagi 11-12 yoshli taekvondochilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini solishtirish

Testlar	Guruh	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			AF	t	P
		$\bar{X}$	$\sigma$	V %	$\bar{X}$	$\sigma$	V %			
O'ng oyoqda max marta o'tirib turish	NG	8,5	1,33	15,65	9,2	1,44	15,58	0,74	2,07	<0,05
	TG	8,6	1,37	15,93	10,2	1,546	15,16	1,60	4,24	<0,001
Chap oyoqda max marta o'tirib turish	NG	10,7	1,88	17,57	11,8	2,06	17,52	1,06	2,08	<0,05
	TG	10,5	1,88	17,90	12,8	2,19	17,11	2,30	4,36	<0,001
O'ng oyoqda 10 s. max marta o'tirib-turish	NG	5,2	0,82	15,68	5,6	0,87	15,60	0,38	1,74	>0,05
	TG	5,4	0,93	17,35	6,1	0,99	16,15	0,77	3,10	<0,01
Chap oyoqda 10 s. max marta o'tirib-turish	NG	7,2	1,20	16,67	7,8	1,28	16,52	0,55	1,72	>0,05
	TG	7,3	1,24	16,99	8,5	1,36	16,13	1,15	3,42	<0,01
